



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(7)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 122 sahifa,
27-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari	10
Abdullajonova Bashorat Olim qizi	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni	13
Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida	17
Boybo'riyeva Saodat O'ralovna	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	21
Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari	26
Madumarov Jahongir Urinbayevich	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli	29
Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari	33
Teshaboyev Akramjon Yuldashevich	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir	39
Turdibekova Risolat Shermatovna	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati	42
Tursunova Durdona	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari	46
Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi	49
Yusupova Muxabbat Anatolevna	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов	53
Рысова Галия Байбулатовна	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts	57
Asadova Zebiniso Makhmudovna	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari	62
Beketov Nurseit Alijan o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
Rustamova Zuhro Sanjar qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari	76
Tursunova Dildora Ziyadullayevna	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi	79
Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish	83
M. Badalova	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы: современные педагогические подходы.....	86
Родина Ирина Витальевна	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy identikligini shakllantirishda psixologik diagnostika va rivojlantiruvchi yondashuvlar	91
Feruza Tohirova	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	99
Islomova Mushtaribonu Akram qizi	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	104
Nafisa Tuxtasinova	
Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari	108
To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Nafisa Tuxtasinova	
Zamonaviy ta'lim oluvchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashning yangicha yondashuvi	113
Xudayberdiev Inom Xasanovich	
Yoshlar oilalarda ekologik madaniyati rivojlanishida turar joy muhiti va gender yondashuvlarining ahamiyati.....	117
Yusupova Muhabbatxon Abdulajon qizi	

SHAXSIY KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

To'xtasinov Dadaxon Farxodovich

Oriental universiteti Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrasida dotsenti

Nafisa Tuxtasinova

Oriental universiteti

Matematika va axborot texnologiyalari kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-metodik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsning mustaqil fikrlashi, yangilik yaratishga intilishi, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashishi, mavjud bilimlarni yangi sharoitlarda qo'llay olishi hamda o'z faoliyatini tanqidiy baholashi muhim kompetensiyalar sifatida e'tirof etiladi. Shaxsiy kreativ kompetentlik shaxsning ijodiy salohiyati, tashabbuskorligi, moslashuvchan tafakkuri, innovatsion qaror qabul qilish qobiliyati va o'zini uzluksiz rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyoji bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotda kreativ kompetentlikni rivojlantirishda muammoli ta'lim, loyiha metodi, refleksiv topshiriqlar, ijodiy treninglar, keys-stadi, kollaborativ faoliyat, raqamli texnologiyalar hamda individual ta'lim trayektoriyalarining metodik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar tizimlashtirilib, ularni ta'lim amaliyotida qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: shaxsiy kreativ kompetentlik, ijodiy tafakkur, metodik imkoniyat, innovatsion ta'lim, refleksiya, muammoli ta'lim, loyiha metodi, kreativ faoliyat.

Abstract: This article analyzes the pedagogical and methodological opportunities for developing personal creative competence. In contemporary education, independent thinking, the ability to generate new ideas, creative problem-solving, the application of existing knowledge in new situations, and critical self-evaluation are regarded as essential competencies. Personal creative competence is characterized by an individual's creative potential, initiative, flexible thinking, innovative decision-making ability, and intrinsic motivation for continuous self-development.

The study explores the methodological potential of problem-based learning, project-based learning, reflective tasks, creative training, case-study methods, collaborative learning, digital technologies, and individualized learning trajectories in fostering creative competence. Furthermore, the article systematizes methodological approaches to the development of personal creative competence and proposes scientific and practical recommendations for their effective implementation in educational practice.

Key words: personal creative competence, creative thinking, methodological opportunities, innovative education, reflection, problem-based learning, project-based learning, creative activity.

Аннотация: В статье анализируются педагогико-методические возможности развития личностной креативной компетентности. В условиях современного образования самостоятельное мышление личности, стремление к созданию нового, творческий подход к решению проблемных ситуаций, способность применять имеющиеся знания в новых условиях и критически оценивать собственную деятельность рассматриваются как важнейшие компетенции. Личностная креативная компетентность характеризуется творческим потенциалом, инициативностью, гибкостью мышления, способностью принимать инновационные решения и внутренней потребностью в непрерывном саморазвитии.

В исследовании раскрываются методические возможности проблемного обучения, проектного метода, рефлексивных заданий, творческих тренингов, кейс-метода, коллаборативной деятельности, цифровых технологий и индивидуальных образовательных траекторий в развитии креативной компетентности. Кроме того, систематизированы методические подходы к развитию личностной креативной компетентности и разработаны научно-практические рекомендации по их внедрению в образовательную практику.

Ключевые слова: личностная креативная компетентность, творческое мышление, методические возможности, инновационное образование, рефлексия, проблемное обучение, проектный метод, творческая деятельность.



KIRISH

Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va innovatsion taraqqiyot jarayonlari ta'lim tizimi oldiga ijodiy fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, yangilikka ochiq hamda o'z faoliyatini samarali tashkil eta oladigan shaxsni tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda. Ta'limning an'anaviy, bilim berishga yo'naltirilgan modeli endilikda shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, uni mustaqil izlanishga undash hamda nostandart vaziyatlarda moslashuvchan yechim topishga tayyorlash bilan boyitilmoqda. Bu jarayonda shaxsiy kreativ kompetentlik ta'lim oluvchining nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki ijodiy yondashuv, tashabbuskorlik, yangicha fikrlash va refleksiv tahlil qilish qobiliyatlarini ham o'z ichiga olgan muhim pedagogik kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxsiy kreativ kompetentlik insonning o'z imkoniyatlarini anglay olishi, muammolarga turli nuqtai nazardan yondashishi, original g'oyalarni ilgari surishi, mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llashi, faoliyat natijalarini baholashi hamda doimiy rivojlanishga intilishi bilan belgilanadi. Bunday kompetentlikni shakllantirish ta'lim jarayonida maqsadli metodik tizim, ijodiy muhit, motivatsion qo'llab-quvvatlash, interfaol metodlar, refleksiv faoliyat va zamonaviy texnologiyalar uyg'unligini talab etadi.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirishning dolzarbligi ta'lim oluvchilarning o'quv jarayonidagi passiv ishtirokini kamaytirish, ularni faol ijodiy subyektga aylantirish, mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish hamda kasbiy va hayotiy faoliyatga tayyorlash bilan bog'liq. Ayniqsa, pedagogik ta'limda shaxsiy kreativ kompetentlikning rivojlanishi kelajakdagi mutaxassisning innovatsion faoliyatga tayyorligi, o'quvchilar bilan ijodiy ishlash qobiliyati va ta'lim jarayonini yangicha tashkil etish mahorati uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini aniqlash, ularni tizimlashtirish hamda ta'lim jarayonida samarali qo'llashga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsiy kreativ kompetentlik tushunchasining pedagogik mazmunini ochib berish;
- kreativ kompetentlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
- metodik yondashuvlar va ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlarini tahlil qilish;
- kreativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan metodik modelning tarkibiy qismlarini asoslash;
- ta'lim amaliyoti uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativlik masalasi psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va menejment fanlarida keng o'rganilgan.

J. Guilford kreativlikni tafakkurning muhim xususiyati sifatida tahlil qilib, divergent fikrlashni, ya'ni bir masalaga bir nechta yechim topish qobiliyatini ijodiy tafakkurning asosiy belgilaridan biri sifatida ko'rsatadi.

E. Torrance kreativ tafakkurni muammoni sezish, taxmin ilgari surish, yechim izlash, natijani tekshirish va uni ifodalash jarayoni sifatida talqin qiladi.

T. Amabile esa kreativlikni shaxsiy qobiliyat, motivatsiya va ijodiy muhitning o'zaro ta'siri bilan bog'laydi.

Pedagogik nuqtai nazardan kreativ kompetentlik shaxsning o'quv-bilish faoliyatida yangilik yaratishga intilishi, mavjud bilimlarni qayta ishlashi, turli g'oyalarni uyg'unlashtirishi, mustaqil xulosa chiqarishi hamda amaliy vaziyatlarda samarali yechim topa olishi orqali ifodalanadi. Kompetensiyaviy yondashuvda kreativlik alohida iste'dod sifatida emas, balki maqsadli rivojlantiriladigan ta'lim natijasi sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma, malaka, qadriyatli munosabat, motivatsiya va refleksiv tajribasini yaxlit tizimda rivojlantirishga qaratilgan.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirishda L. S. Vygotskiyning ijodiy tasavvur va ijtimoiy muhit haqidagi qarashlari muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha, ijodiy faoliyat inson tajribasiga tayanadi, biroq uni qayta qurish, yangicha bog'lash va yangi obrazlar yaratish orqali rivojlanadi. Demak, ta'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish uchun boy tajriba, muloqot, hamkorlik, muammoli vaziyatlar va mustaqil izlanishga asoslangan metodik muhit zarur.

Ilmiy manbalarda kreativ kompetentlikning tarkibiy qismlari turlicha talqin qilinadi. Pedagogik tadqiqotlarda u motivatsion, kognitiv, faoliyatli, ijodiy va refleksiv komponentlar asosida baholanadi. Motivatsion komponent yangilikka qiziqish, ijodiy faoliyatga ehtiyoj va tashabbuskorlikni ifodalaydi. Kognitiv komponent ijodiy tafakkur, bilimlar tizimi hamda muammoli vaziyatni anglash qobiliyati bilan bog'liq. Faoliyatli komponent ijodiy topshiriqlarni bajarish, loyiha yaratish va g'oyani amaliy natijaga aylantirishni qamrab oladi. Ijodiy komponent original fikrlash, moslashuvchanlik, tasavvur va innovatsion yondashuvni ifodalaydi. Refleksiv komponent esa shaxsning o'z faoliyatini tahlil qilishi, xatolarini anglay olishi va keyingi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashi bilan tavsiflanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa-so'rov, ijodiy topshiriqlarni tahlil qilish, ekspert baholash va refleksiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli, refleksiv va innovatsion yondashuvlar tashkil etdi. Kompetensiyaviy yondashuv shaxsiy kreativ kompetentlikni faqat nazariy bilimlar majmui sifatida emas, balki amaliy faoliyatda namoyon bo'ladigan kompleks sifat sifatida baholash imkonini beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ta'lim oluvchining qiziqishlari, ehtiyojlari, individual imkoniyatlari, shaxsiy tajribasi va rivojlanish sur'atini hisobga olishga xizmat qiladi. Faoliyatli yondashuv kreativlikni real topshiriqlar, loyiha ishlari, muammoli vaziyatlar va ijodiy mashqlar orqali rivojlantirishni nazarda tutadi.

Refleksiv yondashuv esa shaxsning o'z fikrlari, harakatlari va faoliyati natijalarini anglash, tahlil qilish hamda baholashiga imkon yaratadi.

1-jadval: Tadqiqot doirasida shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan metodik imkoniyatlar yo'nalishlari

№	Metodik yo'nalishlar	Mazmuni	Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishdagi imkoniyati
1	Muammoli ta'lim imkoniyatlari	Ta'lim oluvchiga tayyor bilimni berish emas, balki muammoni mustaqil aniqlash, savol qo'yish, taxmin ilgari surish va yechim topish imkoniyati yaratiladi.	Mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish, noodatiy yechim izlash va ijodiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
2	Loyiha metodi imkoniyatlari	Ta'lim oluvchi ijodiy g'oyani rejalashtiradi, zarur resurslarni tanlaydi, jamoada ishlaydi va yakuniy mahsulot yaratadi.	Ijodiy tashabbuskorlik, rejalashtirish, amaliy faoliyat, natijaga yo'naltirilganlik va innovatsion mahsulot yaratish qobiliyatini shakllantiradi.
3	Kollaborativ ta'lim imkoniyatlari	Guruhiy muhokama, fikr almashish, rollarni taqsimlash va birgalikda qaror qabul qilish asosida tashkil etiladi.	Muloqot madaniyati, jamoaviy ijodkorlik, fikrlarni uyg'unlashtirish va hamkorlikda kreativ yechim topish malakasini rivojlantiradi.
4	Refleksiv topshiriqlar imkoniyatlari	Ta'lim oluvchi o'z yutug'i, qiyinchiligi, xatosi va kelgusi rivojlanish yo'nalishini tahlil qiladi.	O'z faoliyatiga tanqidiy yondashish, xatolardan xulosa chiqarish, ijodiy o'sish yo'nalishini belgilash va shaxsiy rivojlanishni boshqarish imkonini beradi.
5	Raqamli texnologiyalar imkoniyatlari	Elektron platformalar, vizual dasturlar, sun'iy intellekt vositalari, multimediyalar resurslari va onlayn hamkorlik maydonlaridan foydalaniladi.	Ijodiy faoliyatni kengaytiradi, axborot bilan ishlash, raqamli mahsulot yaratish, vizual fikrlash va innovatsion yondashuvni rivojlantiradi.
6	Ijodiy trening va mashqlar imkoniyatlari	"Aqliy hujum", "SCAMPER", "6 shlyapa", "Assotsiativ xarita", "Kreativ savol" kabi metodlar qo'llaniladi.	Yangi g'oya ishlab chiqish, muqobil fikrlash, tasavvurni faollashtirish, kreativ savol qo'yish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda shaxsiy kreativ kompetentlikni baholash uchun motivatsion, kognitiv, faoliyatli, ijodiy va refleksiv mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb belgilandi. Har bir mezon bo'yicha yuqori, o'rta va past darajalar ajratildi. Yuqori daraja shaxsning ijodiy faoliyatga barqaror qiziqishi, original g'oyalarni ilgari surishi, mustaqil qaror qabul qilishi va natijalarni tahlil qila olishi bilan belgilanadi. O'rta daraja ijodiy faoliyatda ayrim tashabbuslarning mavjudligi, ammo barqarorlik va mustaqillikning yetarli emasligi bilan tavsiflanadi. Past daraja esa ijodiy topshiriqlarga sust munosabat, tayyor namunalarga tayanish hamda muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topishda qiyinchiliklarning mavjudligi bilan ifodalanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirish bir martalik topshiriq yoki alohida metod bilan cheklanmaydi. U ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, baholash tizimi va pedagogik muhiti bilan bevosita bog'liq bo'lgan kompleks jarayondir. Kreativ kompetentlikni samarali rivojlantirish uchun ta'lim oluvchi tayyor javobni eslab qoluvchi emas, balki savol qo'yuvchi, izlanishga kirishuvchi, o'z fikrini asoslovchi, yangi g'oyalarni ishlab chiquvchi va o'z faoliyati natijalarini baholovchi subyekt sifatida faoliyat yuritishi zarur.



Tadqiqot asosida shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning quyidagi metodik imkoniyatlari ajratildi.

*Birinchi*dan, muammoli vaziyatlardan foydalanish ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga undaydi. Oddiy reproduktiv savollar o'rniga: "Nima uchun?", "Qanday qilib?", "Boshqa qanday yo'l bo'lishi mumkin?", "Agar sharoit o'zgarsa, yechim qanday bo'ladi?" kabi savollarning berilishi ijodiy tafakkurni faollashtiradi. Muammoli vaziyat shaxsni noaniqlik sharoitida fikrlashga, turli variantlarni solishtirishga va eng maqbul qarorni tanlashga o'rgatadi.

*Ikkinchi*dan, loyiha faoliyati kreativ kompetentlikni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Loyiha jarayonida ta'lim oluvchi muammoni tanlaydi, maqsad qo'yadi, reja ishlab chiqadi, axborot to'playdi, natija yaratadi va uni himoya qiladi. Bu jarayon mustaqillik, mas'uliyat, ijodiy izlanish, kommunikativlik va refleksiv tahlilni birgalikda rivojlantiradi.

*Uchinchi*dan, interfaol metodlar ta'lim oluvchilarni faol muloqotga jalb etadi. "Aqliy hujum", "Klaster", "Debat", "INSERT", "Bumerang", "Fikrlar xaritasi", "Keys-stadi" kabi metodlar shaxsning fikrlash doirasini kengaytiradi va muqobil g'oyalarni ilgari surishga undaydi. Ayniqsa, "Keys-stadi" metodi real yoki shartli vaziyatlarni tahlil qilish orqali ijodiy qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

*To'rtinchi*dan, refleksiv faoliyat kreativ kompetentlikning ichki mexanizmlarini kuchaytiradi. Refleksiya orqali ta'lim oluvchi: "Men qanday fikrladim?", "Qaysi yechim samarali bo'ldi?", "Qaysi xatolar takrorlanmasligi kerak?", "Keyingi safar qanday yondashaman?" kabi savollarga javob izlaydi. Natijada shaxs ijodiy faoliyatni ongli ravishda boshqarishga o'rganadi.

*Beshinchi*dan, raqamli texnologiyalar kreativ faoliyat uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Multimedia taqdimotlari, infografikalar, raqamli hikoyalar, elektron portfoliolar, onlayn doskalar, sun'iy intellekt yordamida g'oyalarni ishlab chiqish, video va audio materiallar yaratish ta'lim oluvchilarning ijodiy mahsulot tayyorlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli muhit ta'lim oluvchiga o'z fikrini turli shakllarda ifodalash imkonini beradi.

*Oltinchi*dan, individual ta'lim trayektoriyasi shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Har bir ta'lim oluvchining qiziqishlari, tajribasi, fikrlash uslubi va ijodiy imkoniyatlari turlicha bo'ladi. Shu nuqtadan nazar, differensial topshiriqlar, tanlov asosidagi loyiha mavzulari, mustaqil izlanish yo'nalishlari va ijodiy portfoliolar ta'lim oluvchining shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

2-jadval: Tadqiqot natijalari asosida shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik modelining tarkibiy qismlari

Tarkibiy qism	Mazmuni	Kutiladigan natija
Maqsadli komponent	Kreativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik maqsadlar	Ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan shaxs shakllanadi
Mazmuniy komponent	Muammoli, ijodiy, loyiha va refleksiv topshiriqlar	Bilimlar ijodiy faoliyat bilan bog'lanadi
Texnologik komponent	Interfaol metodlar, loyiha metodi, keys-stadi, raqamli vositalar	Mustaqil fikrlash va yangicha yechim topish rivojlanadi
Motivatsion komponent	Rag'bat, qiziqish, ijodiy muhit, tanlov erkinligi	Ichki ehtiyoj va tashabbuskorlik kuchayadi
Baholash komponenti	Mezonlar, indikatorlar, portfolio, ekspert bahosi	Kreativ rivojlanish darajasi aniqlanadi
Refleksiv komponent	O'z faoliyatini tahlil qilish, xulosa chiqarish	Shaxsiy rivojlanish yo'li belgilanadi

Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirish metodikasi an'anaviy ta'limdan tubdan farq qiladi. An'anaviy yondashuvda o'qituvchi asosiy axborot manbai bo'lsa, kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limda o'qituvchi tashkilotchi, yo'naltiruvchi, maslahatchi va hamkor sifatida namoyon bo'ladi. Bunday sharoitda ta'lim oluvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki o'z bilimni yaratuvchi, uni amaliyotda sinovdan o'tkazuvchi va yangi natija hosil qiluvchi faol ishtirokchiga aylanadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, kreativ kompetentlikni rivojlantirishda faqat ijodiy topshiriqlar berish yetarli emas. Topshiriqning mazmuni, baholash mezonlari, pedagogik muhit, o'qituvchining munosabati va ta'lim oluvchining psixologik erkinligi ham muhim ahamiyatga ega. Agar ta'lim oluvchi xato qilishdan qo'rqsa yoki o'z fikrini erkin ifodalay olmasa, uning kreativ faolligi pasayadi. Demak, kreativ kompetentlikni rivojlantirish uchun xavfsiz ijodiy muhit, ochiq muloqot, fikrlar xilma-xilligiga hurmat va konstruktiv tahlil zarur.

Kreativ kompetentlikni baholashda ham an'anaviy test natijalari bilan cheklanib bo'lmaydi. Testlar kognitiv bilimlarni aniqlashi mumkin, ammo original g'oya, moslashuvchan fikrlash, muammoga noodatiy yondashuv, jamoada ijodiy ishlash va refleksiv tahlil kabi ko'rsatkichlarni kompleks baholash uchun portfolio, loyiha himoyasi, ijodiy mahsulot, kuzatuv varaqasi, ekspert bahosi va o'zini o'zi baholash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Metodik jihatdan samarali natijaga erishish uchun kreativ kompetentlikni rivojlantirish jarayoni bosqich-ma-bosqich tashkil etilishi kerak. Dastlab ta'lim oluvchilarning kreativ salohiyati, motivatsiyasi va mavjud tajribasi aniqlanadi. Keyingi bosqichda ijodiy muhit yaratiladi, muammoli savollar, ijodiy mashqlar, loyiha topshiriqlari va guruhliy faoliyat yo'lga qo'yiladi. Yakuniy bosqichda esa natijalar tahlil qilinadi, ta'lim oluvchining individual o'sish dinamikasi baholanadi hamda keyingi rivojlanish yo'nalishlari belgilanadi.

Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishda quyidagi metodik shartlarga amal qilish zarur:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Amabile T. M. Creativity in Context: Update to the Social Psychology of Creativity. - Boulder : Westview Press, 1996.
2. Csikszentmihalyi M. Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention. - New York : HarperCollins, 1996.
3. Mamadiyrov J. Pedagogical Possibilities of Developing the Creative-Practical Activity Skills of Future Primary School Teachers // Journal of International Science Networks. - 2025. - Vol. 1, No. 5. - P. 179-182. - DOI: 10.5281/zenodo.15796174.
4. Baxodirovich M. J., Qizi K. R. E. Ta'lim jarayonida interfaol uslublar va texnologiyalardan foydalanish // Tadqiqotlar. - 2025. - T. 63. - № 3. - B. 57-59.
5. Bakhodirovich M. J. Modern Directions of Using Pedagogical Technologies in the Education of Students // Spanish Journal of Innovation and Integrity. - 2025. - № 41. - P. 397-400.
6. Baxodirovich M. J. Ta'lim jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalardan foydalanish // Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. - 2025. - T. 12. - № 02. - B. 91-93.
7. Mamadiyrov J., Asqatbekova G. Integration with Information Communication Technology in Organizing Primary Classes // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. - 2025. - Vol. 5, No. 1. - P. 430-433.
8. Tukhtasinov D. F. Developing Logical Thinking of 5-9th Year Students at Mathematics Lessons // Eastern European Scientific Journal. - 2018. - № 2.
9. Farkhodovich T. D. The Problem of Forming Interpersonal Tolerance in Future Teachers // International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. - 2022. - Vol. 2. - No. 4. - P. 12-15.
10. Tukhtasinov D. Development of Logical Thinking of Pupils of 5-9th Grades in the Lessons of Mathematics // Zbiór artykułów naukowych recenzowanych. - 2018. - T. 209. - № 22. - P. 586-587.
11. Sayfutdinovna A. B., Farkhadovich T. D., Imomovna T. N. Methodology of Developing Logical Thinking in the Process of Teaching Mathematics in Grades 5-9 Students: Ways to Apply in Practice the Didactic Complex of Conditions for the Development of Logical Thinking of Students in Mathematics Lessons // European Journal of Molecular and Clinical Medicine. - 2021. - Vol. 8. - No. 1. - P. 948-962.
12. Farhodovich T. X. D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlari // Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali. - 2023. - T. 3. - № 3. - B. 24-28.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(7)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.